



## TOSHKENT VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Toshkent viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2019 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)




Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar-dekabr oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 555,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 123,4 % ga oshganini ko'rish mumkin. Hududlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Olmaliqda 3985,0 ming so'mni (viloyat o'rtacha oylik ish hakiga nisbatan 155,9 % ), Bekobod shahrida 2916,6 ming so'mni (114,1 %), Nurafshon shahrida 2 670,9 ming so'mni (104,5%) tashkil etdi. Aksincha, Bekobod tumanida 1574,5 ming so'mga (61,6%), Bo'ka tumanida 1683,9 ming so'mni (65,9 %), Parkent tumanida 1705,7 ming so'mga (66,7 %), Oqqurg'on tumanida 1803,3 ming so'mga (70,6%), pasayganligini ko'rish mumkin.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



(2019 yanvar-dekabr oylarida viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)  
 (2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
 sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)





# Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbati

(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)

<i>2018 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2019 yil yanvar-dekabr</i>	<i>yanvar-dekabr nisbatan % hisobida</i>
-----------------------------------	-----------------------------------	--

Viloyat bo'yicha:

*shaharlar:*

Nurafshon

Olmaliq

Angren

Bekobod


Chirchiq



Ohangaron


## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari, ming so'm)



## Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'atlari % da

(2019 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes tadbirkorlik sub'ektlaridan)





### Toshkent viloyati bo'yicha 2019 yil yanvar– dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:

Ta'limda 1585 ta muassasada 76322 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 28,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 1738117,6 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 21,1 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1897,8 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 131,9 % ga o'sdi;



Sanoatda 99 ta korxonada 95117 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi - 34,9 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4065381,1 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 49,3 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3561,7 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 156,4 %ga o'sdi;



## Toshkent viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar– dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 115 ta muassasada 38866 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 14,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 668652,7 mln. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 8,1 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1433,7 ming. so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 130,3 % ga o'sdi;



Tashish va saqlashda 27 ta korxonada 3765 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,4 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 71567,3 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 % ni) tashkil etgan. Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1584,0 ming.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 106,3 % ga o'sdi;



### Toshkent viloyat bo'yicha 2019 yil yanvar– dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi:

Moliyaviy va sug'urta faoliyatida 82 ta muassasada 3650 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 166765,1 mln.so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 2,0 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3807,4 mln.so'mni tashkil etib, 2018 yilning mos davriga nisbatan 148,4 %ga o'sdi.



#### **Ma'lumot uchun:** "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi"

ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.07.2019 yildagi 5765-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, joriy yilning 1 sentabridan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 634 880 so'mni tashkil etadi.



2019 yil  
dekabr

**Toshkent viloyat statistika boshqarmasi**  
**Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi**  
**Tel: (71) 230-86-78, 230-86-79**